BARQAROR TURIZM YO‘NALISHLARINING HUDUDIY IQTISODIYOTGA QO‘SHGAN HISSASI

Ahmadova Shahribonu Muxtarbek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19204143

Annotatsiya. *Mazkur maqolada barqaror turizm konsepsiyasining nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlari kompleks ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda barqaror turizm sohasining hozirgi rivojlanish bosqichi, uning davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalish sifatidagi o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot doirasida mamlakatda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy islohotlar, maqsadli davlat dasturlari, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish loyihalari hamda ularning amaliy natijalari tizimli ravishda ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, ichki va tashqi omillar ta’sirida barqaror turizmni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar, institutsional va infratuzilmaviy to‘siqlar, boshqaruv tizimidagi ayrim kamchiliklar aniqlanib, ularning kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Аннотация. *В данной статье комплексно проанализированы теоретические основы и практические механизмы концепции устойчивого туризма. Кроме того, на научной основе освещены современный этап развития сферы устойчивого туризма в Узбекистане, его роль как приоритетного направления государственной политики и его социально-экономическое значение. В рамках исследования системно рассмотрены нормативно-правовые реформы, направленные на развитие экотуризма в стране, целевые государственные программы, проекты модернизации туристической инфраструктуры и их практические результаты. Вместе с тем выявлены проблемы, возникающие в процессе развития устойчивого туризма под влиянием внутренних и внешних факторов, институциональные и инфраструктурные барьеры, а также отдельные недостатки системы управления, и научно обоснованы причины их возникновения.*

Annotation. *This article comprehensively analyzes the theoretical foundations and practical mechanisms of the sustainable tourism concept. It also provides a scientific overview of the current stage of sustainable tourism development in Uzbekistan, its role as a priority area in state policy, and its socio-economic significance. Within the framework of the study, regulatory and legal reforms aimed at developing ecotourism in the country, targeted state programs, tourism infrastructure modernization projects, and their practical outcomes are systematically examined. At the same time, the study identifies the problems arising in the process of sustainable tourism development under the influence of internal and external factors, institutional and infrastructural barriers, as well as certain shortcomings in the management system, and scientifically substantiates the causes of their emergence.*

Kalit so’zlar. *Barqaror turizm, ekoturizm, turizm infratuzilmasi, davlat siyosati, turistik oqim, investitsiyalar, ekologik barqarorlik, hududiy rivojlanish, innovatsion yondashuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, strategik rivojlanish.*

Ключевые слова. *Устойчивый туризм, экотуризм, туристическая инфраструктура, государственная политика, туристический поток, инвестиции, экологическая*

устойчивость, региональное развитие, инновационные подходы, социально-экономическая эффективность, стратегическое развитие.

Keywords. *Sustainable tourism, ecotourism, tourism infrastructure, state policy, tourist flow, investments, environmental sustainability, regional development, innovative approaches, socio-economic efficiency, strategic development.*

Kirish. Bugungi kunda turizm sohasi jahon miqyosida eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ham turizmning barcha yo‘nalishlarini, shu jumladan barqaror turizmni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, MOST ("Markaziy Osiyoda barqaror turizm modeli: salohiyatni yaratish, xabardorlikni oshirish, texnologiyalarni joriy etish") loyihasi O‘zbekiston ham ishtirok etayotgan muhim mintaqaviy tashabbuslardan biri hisoblanadi. Mazkur loyiha Markaziy Osiyo mamlakatlarining sayyohlik salohiyatini kuchaytirish hamda barqaror turizmtamoyillarini amaliyotga joriy etishni maqsad qilib olgan. Loyiha Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan SWITCH–ASIA dasturi doirasida amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda hududiy rivojlanish dasturlari, jumladan, Samarqand shahridagi eng muhim tarixiy obyektlarni bog‘lovchi 6,6 km uzunlikdagi turistik marshrutni tashkil etish bo‘yicha "Samarqandning meros yo‘li" loyihasini amalga oshirishni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish, Ichan-qal'a majmuasining umumbashariy bemisl qimmatini muhofaza qilish, bu boradagi har qanday salbiy ta'sirni barvaqt aniqlash, oldini olish hamda aybdor shaxslarga nisbatan qonuniy ta'sir choralarini ko‘rib borish va 2026-2028-yillarda ushbu yo'l xaritasini amalga oshirish ko'zda tutilgan[1]. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanib borayotgan global turizm tizimida munosib o‘rin egallashga intilmoqda. Mamlakatda barqaror, raqobatbardosh va innovatsion turizm modelini shakllantirish orqali xalqaro miqyosda milliy turizm brendining nufuzini oshirish, iqtisodiyotning ushbu strategik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Turizm adabiyotlarida barqaror turizmning hududiy iqtisodiyotga ta'siriga oid masalalar qator olimlar tomonidan o‘rganilgan va turlicha shakllarda ta'rif berilgan. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, **John Swarbrooke** – barqaror turizmni nazariy jihatdan tadqiq qilgan va "Sustainable Tourism Management" kitobida tushunchani tizimli shaklda bayon qilgan. U turizmni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik mezonlari bilan birga ko‘rib, uni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqqan[2]. Shuningdek, World Tourism Organization (UNWTO) o‘z hisobotlarida barqaror turizmni hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholab, uning bandlikni oshirish, mahalliy aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda infratuzilmani yaxshilashdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Tashkilot tadqiqotlarida turizmning multiplikativ effekti, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytirishi ilmiy asoslangan. Bundan tashqari, Richard Butler o‘z ilmiy ishlarida barqaror turizm rivojlanishining siklik modeli (TALC – Tourism Area Life Cycle) orqali hududlarning iqtisodiy bosqichma-bosqich rivojlanishini tahlil qilgan va turizmni rejalashtirishda ekologik va iqtisodiy muvozanatni saqlash zarurligini asoslab bergan[3].

Shu bilan birga, David Weaver barqaror turizm nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlarida turizmning hududiy iqtisodiyotga ta'sirini ijtimoiy, ekologik va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari orqali baholash metodologiyasini ishlab chiqqan[4]. U mahalliy resurslardan oqilona

foydalanish hududiy iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli omili ekanligini ta’kidlaydi. O‘zbekiston sharoitida esa N.To‘xliev o‘z tadqiqotlarida turizmni hududiy rivojlanish strategiyasi sifatida ko‘rib, tarixiy-madaniy resurslardan samarali foydalanish orqali mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni oshirish mumkinligini ilmiy asoslab bergan[5]. Biroq, ayrim hududlar, xususan, ekologik va madaniy turizm salohiyati yuqori bo‘lgan mintaqalarda barqaror turizm mexanizmlarining amaliy joriy etilishi hali yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Tadqiqotlarga asosan, O‘zbekiston hududlarida barqaror turizmni rivojlantirish va mahalliy iqtisodiyotga ta’sirini oshirish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda barqaror turizm yo‘nalishlarining hududiy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, kontent-tahlil hamda monitoring usullari qo‘llanildi. Ushbu metodlar yordamida hududiy turizmning mahalliy daromad, bandlik va iqtisodiy o‘sishga ta’siri baholandi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston o’zining ko’plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o’ziga tortmoqda. Barqaror turizm — bu iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan rivojlanish modelidir. Jadvalda ko‘rsatilgan ijobiy va salbiy ta’sirlar aynan hududiy iqtisodiyot shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu jadvalda turizmning hududlar iqtisodiyotiga qanday ta’sirlari borligi o’rganib chiqilgan.

1-jadval

Barqaror turizm rivojlanishining hududiy iqtisodiyot ko‘rsatkichlariga ta’sir mexanizmlari

T/r	Ta’sir turi	Ijobiy iqtisodiy ta’sir	Salbiy iqtisodiy ta’sir
1	Bandlik	Yangi ish o‘rinlari yaratiladi (mehmonxona, transport, xizmat ko‘rsatish)	Mavsumiy ish o‘rinlari beqarorlik keltirib chiqarishi mumkin
2	Mahalliy biznes rivoji	Kichik va oilaviy tadbirkorlik rivojlanadi	Yirik investorlar kichik biznesni siqib chiqarishi mumkin
3	Byudjet daromadi	Soliq tushumlari va turistik yig‘imlar oshadi	Daromad notekis taqsimlanishi mumkin
4	Infratuzilma	Yo‘llar, aloqa, transport va xizmat sifati yaxshilanadi	Infratuzilma ortiqcha yuklama tufayli tez eskiradi
5	Investitsiya jozibadorligi	Hududga ichki va tashqi investitsiyalar jalb qilinadi	Iqtisodiyot turizmga haddan tashqari bog‘lanib qolishi mumkin
6	Narxlar darajasi	Ayrim sohalarda daromad oshadi	Yer, ijara va oziq-ovqat narxlari ko‘tariladi
7	Resurslardan foydalanish	Tabiiy va madaniy resurslar iqtisodiy qiymat kasb etadi	Resurslar tanqisligi va ekologik bosim yuzaga keladi
8	Hudud brendi	Hududning iqtisodiy imiji mustahkamlanadi	Madaniyat tijoratlashuvi iqtisodiy xavf tug‘diradi

Mazkur 1-jadvalga asosan, barqaror turizmning hududiy iqtisodiyotga ko‘rsatadigan ko‘p qirrali ta’sirini tizimli ravishda ifodalaydi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm bandlikni

kengaytirish, mahalliy tadbirkorlikni faollashtirish, byudjet tushumlarini oshirish va investitsiya jozibadorligini kuchaytirish orqali iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, mavsumiylik, daromadlarning notekis taqsimlanishi, infratuzilmaga ortiqcha yuklama, narxlar o‘sishi hamda resurslar ekspluatatsiyasining kuchayishi kabi omillar iqtisodiy nomutanosiblik va ijtimoiy tafovut xavfini yuzaga keltiradi.

Demak, jadvalda aks etgan ijobiy va salbiy ko‘rsatkichlar barqaror turizmni muvozanatli institutsional boshqaruv asosida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Faqat iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy inklyuzivlik o‘rtasidagi optimal nisbat ta’minlangandagina hududiy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlantirish mumkin.

Xalqaro amaliyotda turizmning global iqtisodiyotdagi ulushi 9–10 foiz atrofida deb baholanadi (bevosita va bilvosita ta’sirlarni hisobga olgan holda). Ayrim turizmga ixtisoslashgan davlatlarda bu ko‘rsatkich 20–30 foizgacha yetadi. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda turizm iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida rivojlanmoqda. Jumladan, World Travel & Tourism Council (WTTC) hisobotlariga ko‘ra, pandemiyadan keyingi davrda turizmning iqtisodiyotdagi ulushi tiklanish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, turizm xizmatlari eksporti va ichki turizm hajmining oshishi YAIM tarkibida xizmatlar ulushining kengayishiga xizmat qilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF–217-son Farmoniga muvofiq, iqtisodiyotning strategik jihatdan muhim sektori sifatida turizm sohasining tizimli va barqaror rivojlanishini ta’minlash, sohada davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, ko’rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda milliy turistik mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash ko’zda tutilgan[6]. 2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib

a) turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizgacha yetkazish;
b) chet ellik turistlarning yillik sonini amaldagi 10 mln nafardan 20 mln nafargacha yetkazish, shu jumladan, to’lov qobiliyati yuqori bo’lgan turistlar oqimini ko’paytirish;
c) turizm xizmatlari yillik eksporti hajmini 6 mlrd AQSh dollaridan oshirish belgilangan.

2-jadval

Turizmning YaIM dagi ulushi (foizda)

Yillar	YaIM hajmi (mlrd Aqsh dollarida)	Turizmning ulushi (%)
2021	65	0.6
2022	78.6	0.65
2023	95.2	3.5
2024	115.9	4.7
2025	139.6	5.0

Mazkur 2-jadvalda, turizmning YaIM dagi ulushi ko’rsatilgan. 2021–2025 yillarda YAIM hajmi 2 baravardan ko‘proq oshgan (65 mlrd → 139,6 mlrd dollar). Turizmning YAIMdagi ulushi 0,6 % dan 5 % gacha o‘sgan, ayniqsa 2023 yildan boshlab turizm sektori jadal rivojlangan. Bu holat turizmning mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda barqaror turizm so‘nggi yillarda hududiy iqtisodiy o‘sishning muhim drayveriga aylanmoqda. 2021–2025 yillarda YAIM hajmining 65 mlrd dollardan 139,6 mlrd dollargacha oshishi hamda turizm ulushining 0,6 foizdan 5 foizgacha ko‘tarilishi sohaning strategik ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Barqaror turizm bandlikni kengaytirish, mahalliy biznesni rivojlantirish, byudjet tushumlarini oshirish va hudud brendini mustahkamlash orqali ijobiy multiplikativ ta’sir ko‘rsatmoqda.

- Hududiy diversifikatsiya siyosatini kuchaytirish – turizmni faqat ayrim markazlashgan hududlarda emas, balki ekologik va qishloq turizmi salohiyati yuqori bo‘lgan mintaqalarda ham rivojlantirish.Barqaror boshqaruv mexanizmlarini joriy etish – turistik yuklamani monitoring qilish va resurslardan oqilona foydalanish tizimini takomillashtirish.
- Mahalliy aholi ishtirokini kengaytirish – oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali daromadlarning hudud ichida qolishini ta’minlash.
- Innovatsion va “yashil” texnologiyalarni tatbiq etish – ekologik xavfsiz infratuzilma va raqamli xizmatlarni rivojlantirish.
- Kadrlar salohiyatini oshirish – turizm menejmenti va barqaror rivojlanish bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini kuchaytirish.

Ushbu takliflarning izchil amalga oshirilishi barqaror turizmning hududiy iqtisodiyotga uzoq muddatli va barqaror ijobiy ta’sirini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://lex.uz/docs/-7851788- O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
2. https://www.coursehero.com/file/221646835/TOUR22-chapter-1pdf/?utm_source- Introduction to Sustainable Tourism: Types, Principles, and | Course Hero
3. Butler, R. (1980). *The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources.* Canadian Geographer.
4. Weaver, D. (2006). *Sustainable Tourism: Theory and Practice.* Butterworth-Heinemann.
5. To‘xliev, N. (2020). *Hududiy turizm va iqtisodiy rivojlanish.* Tashkent, O‘zbekiston.
6. https://president.uz/ru/lists/view/8692